

## TA’LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK TARBIYA VA BARQAROR RIVOJLANISH G‘OYALARI

**Axmedov Mirzoxidjon To‘lqinboyevich**

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ta’lim muassasalarida ekologik tarbiya berishning dolzarbligi, uning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi o’rni va pedagogik jarayondagi yondashuvlar keng yoritilgan. Ekologik tarbiya orqali o’quvchilarda tabiatga nisbatan ongli munosabat, ekologik tafakkur, va ijtimoiy mas’uliyat tuyg’usini shakllantirish imkoniyati tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajriba, milliy siyosat va ta’lim dasturlarida ekologik tarbiyani integratsiyalash bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *ekologik tarbiya, barqaror rivojlanish, yashil tafakkur, ekologik madaniyat, zamonaviy ta’lim, tabiatga hurmat, ta’lim muassasasi.*

Hozirgi kunda insoniyat duch kelayotgan eng muhim muammolardan biri – atrof-muhitning ifloslanishi, tabiiy resurslarning kamayishi va iqlim o‘zgarishlaridir. Bu global muammolarning yechimi nafaqat ilmiy-texnikaviy yondashuvlarda, balki yangi avlod ongida ekologik madaniyat va mas’uliyatni shakllantirish orqali ham amalga oshiriladi. Shu bois ta’lim tizimida ekologik tarbiya va barqaror rivojlanish g‘oyalarining uzviy integratsiyasi muhim masalaga aylanmoqda. Ekologik tarbiya orqali o’quvchilarda tabiatga ehtiyyotkorlik, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikka mas’uliyat bilan yondashish ko‘nikmalarini shakllantiriladi.

### 1. Ekologik tarbiyaning mazmuni va maqsadi.

Ekologik tarbiya – bu o’quvchilarning atrof-muhitga ongli munosabatini shakllantirish, ekologik bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni singdirish jarayonidir. Uning asosiy maqsadi – shaxsning ekologik tafakkurini rivojlantirish, tabiat va inson o’rtasidagi muvozanatni anglashga yo‘naltirish, barqaror yashash tamoyillariga asoslangan hayot tarzini shakllantirishdan iborat. Ekologik tarbiya o‘z ichiga biologiya, geografiya, texnologiya, mehnat ta’limi, hatto adabiyot va tarix fanlarida ham tabiatga munosabatni tarbiyalovchi komponentlarni singdiradi.

### 2. Barqaror rivojlanish va ta’lim o’rtasidagi bog‘liqlik.

Barqaror rivojlanish – bu hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirish bilan birga kelajak avlodlarning ham tabiat va resurslardan foydalanish huquqini saqlab qolishdir. Bunday yondashuvni ta’limda tatbiq etish uchun o’quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqish, o’quvchilarni hayotiy muammolar asosida fikrlashga o’rgatish va ekologik muammolarning global, mintaqaviy va lokal darajadagi sabab va oqibatlarini tahlil qila olishga yo‘naltirish zarur. Ta’lim muassasalari barqaror rivojlanishning bilim, axloqiy qadriyat va harakat komponentlarini bir butun tizim sifatida yoshlar ongiga singdirishi kerak.

### 3. Ekologik tarbiyada pedagogik yondashuvlar.

Zamonaviy pedagogikada ekologik tarbiya interaktiv metodlar orqali olib borilmoqda. Bu borada quyidagilar samarali hisoblanadi: ekologik loyihalar, dala mashg‘ulotlari, muammoli vaziyatlar asosida darslar, ekologik treninglar, ekologik klublar faoliyati, maktab hududida bog‘ va yashil maydon tashkil etish. Shu bilan birga, ekologik mavzudagi videolar, hujjatli filmlar, badiiy adabiyotlar, teatr sahnalari orqali hissiy-ta’sirchan muhit yaratish orqali ekologik tarbiyaning samaradorligi oshadi. Pedagoglar o‘quvchilarni tabiatni asrashda shaxsiy mas’uliyatga ega fuqarolar sifatida tarbiyalashda ko‘proq shaxsga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanishi lozim.

#### 4. Xalqaro va milliy tajriba.

BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari”da (2030) ekologik ta’lim va tabiatni asrash global ustuvor yo‘nalish sifatida qayd etilgan. Finlyandiya, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlarda maktab ta’limining ajralmas qismi sifatida ekologik fanlar, amaliy kurslar, ko‘ngillilik asosida tozalik va atrof-muhit monitoringi kabi faoliyatlar yo‘lga qo‘ylgan.

O‘zbekistonda ham “Yashil makon” umummilliy loyihasi, mакtablarda “Ekofest”lar, ekologik marafonlar va “Ekologik haftalik”lar bu boradagi ijobiy amaliyotlardan biridir. Shu bilan birga, ekologik fanlar integratsiyasini kuchaytirish, o‘quv-metodik materiallarni zamon talablari asosida yangilash ehtiyoji bor.

#### XULOSA:

Ta’lim muassasalarida ekologik tarbiya va barqaror rivojlanish g‘oyalarini joriy etish – bu nafaqat zamonaviy ta’limning, balki butun insoniyat istiqbolining muhim tarkibiy qismidir. Ekologik ongli, mas’uliyatlari va ongli fuqaroni tarbiyalash uchun o‘quv jarayonini nafaqat bilim berishga, balki hissiy-axloqiy, ijtimoiy faol va atrof-muhitga mehr bilan qarovchi shaxsni shakllantirishga yo‘naltirish zarur. Ta’lim tizimi bugun yoshlar qalbiga tabiatni asrash g‘oyalarini singdirsa, kelajakda barqaror jamiyat asoslari mustahkamlanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Ta’lim to‘g‘risidagi qonunning yangi taxriri 2020-yilning 23 - sentabrda O‘RQ-637 son.
2. “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. //“O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi” 1993 yil. 1- son, 11-modda.
3. Norbo‘tayev X.B. Boshlang‘ich sinflarda fanlararo ekologik tarbiya //Zamonaviy ta’lim. - 2018. 11-son. - B. 53-58.
4. Sharipova D., Xodiyeva D.P., Sharipov M.K. Tabiatshunoslikni va uni o‘qitish metodikasi. darslik.T.. “Barkamol fayz media” nashiriyoti. 2018.